UO‘K 81’272

TIL MILLAT TAQDIRINI BELGILOVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA

B.A. Isroilova

Har bir xalqning oliy qadriyat sifatidagi muhim belgilaridan biri uning milliy tili sanaladi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek xalqi va uning tili taqdiridagi muhim bir yangi bosqichdir. Tarixiy manbalar tilimizning taraqqiyoti va takomili haqidagi qarashlar chuqur ildiz otganligidan darak beradi. Bu asriy til va millat taqdiri, erkinligi orzusi istiqlol tufayli qaror topdi. Maqolada milliy tilning millat taqdirida tutgan o‘rni, taraqqiyoti va takomili xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, millat, davlat tili, adabiy til, imlo, til tadqiqi, ma’naviy meros, til taraqqiyoti, ijtimoiy omillarning tilga ta’siri.*

Одним из важнейших символов каждого народа является его национальный язык. Придание узбекскому языку статуса государственного языка является важным новым этапом в судьбе узбекского народа и его языка. Если мы посмотрим на историю, то увидим, что представления о развитии и совершенствовании нашего языка имеют глубокие корни. Судьба этого исконно языка и народа, мечтавшего о свободе, решилась благодаря независимости. В статье рассматривается национальный язык и его место в нации, его развитие и совершенствование.

Ключевые слова: *узбекский язык, нация, государственный язык, литературный язык, орфография, языковые исследования, духовное наследие, языковое развитие, влияние социальных факторов на язык.*

Til millat ruhi va milliy tafakkur qurolidir. Har bir xalqning “ona allasi“ bilan qalbiga kirib butun bir ruhiyatiga singib, tomirlarida jo‘sh urib oqib turguvchi qon misoli yashovchanligini ta’minlovchi “ona tili”si bo‘ladi. Bejizga A.Avloniy bobomiz “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur” deya ta’kidlamagan [1. B. 32]. Til ham bevosita xalq tarixi va taqdiri bilan hamnafas avloddan-avlodga o‘tib boruvchi ma’naviy merosi sanaladi. Jumladan, o‘zbek tili ham o‘zbek xalqining asosiy ma’naviy boyligidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Necha asrlar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o‘tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg‘urish – bu millatning o‘zligini anglashi, uning ma’naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro‘-e’tibori – butun xalq, butun jamiyatning obro‘-e’tiboridir” [2]. Bu yerda professor N.Mahmudovning o‘zbek tili haqidagi quyidagi tavsiflarini keltirish o‘rinlidir. “O‘zbek tili o‘zbek xalqining siyrat-u suratini, tafakkur va tahayyul olamini, o‘tmish-u bugunini boricha aks ettiradigan va, muhimi, shu tilning o‘zi vositasida hamda o‘z qo‘li bilan chizilgan ham ichki, ham tashqi xolis qiyofasidir. Bu qiyofa xalqimizning ming yillik lisoniy-tarixiy taraqqiyoti jarayonlarida, betakror madaniy va aqliy, adabiy-badiiy durdonalarida bo‘y ko‘rsatib turibdi. Bu qiyofada parvarish-u muhofazaga, e’zoz-u ehtiyotga, ko‘z qorachig‘idek asramoqqa, yanada kamol sari eltmoqqa shoyon muhtasham boylikdir” [3. B. 6].

Darhaqiqat, oliy qadriyat sifatida har bir xalqning muhim belgilaridan biri *milliy tili* sanaladi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o‘zbek xalqi va uning tili taqdiridagi muhim bir yangi bosqichni, yangi davrni boshlab berdi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Istiqlol tufayli o‘zbek tili o‘zbek xalqining Milliy tili sifatida, Davlat tili sifatidagi o‘zining buyuk maqomiga erishdi. Tilimiz sobiq Ittifoq davrida faqat o‘zbek xalqi uchun oddiy so‘zlashuv tili va aloqa vositasiga aylanib qolgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib davlat tili sifatida jahondagi boshqa tillar kabi e’tibor va e’tirofga ega bo‘lmoqda hamda amalda keng qo‘llanilmoqda.

Professor A.Sobirov ijtimoiy hayotda sodir

bo‘ladigan har qanday o‘zgarishlarning tilga ta’siri xususida quyidagilarni yozadi: “Jamiyatdagi buyuk evrilishlar, ijtimoiy hayotdagi tub o‘zgarishlar hamma davrlarda ham eng avvalo tilda o‘z in’ikosini topib borishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ayni paytda, hamma davrlarda ham jamiyatdagi buyuk evrilishlar, tub o‘zgarishlar behisob tartibsizliklarni, boshboshdoqchiliklarni keltirib chiqarishi ma’lum. Sinergetika qonuniyatlariga ko‘ra, har qanday tartibsizlik ostida ko‘rinmas ichki tartib yotadi. O‘zbek tili keyingi 100 yil davomida bunday holatga bir necha bor duch keldi. O‘tgan asr boshlarida jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida o‘zbek tiliga har tarafdan yangi so‘zlar kirib keldi, til uslublarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi: tilning sofligiga putur yetdi, adabiy tilning taqdiri dolzarb masalaga aylandi. O‘zbek tili ilk bor kuchli siyosiy va ijtimoiy tazyiqqa uchradi” [4. B. 14].

Tilshunos olim o‘z maqolasida bu boradagi fikrlarini dalillash maqsadida o‘sha davrning ilg‘or vakillaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitratning “Tilimiz” maqolasidan quyidagi dardli satrlarini juda o‘rinli keltirib o‘tadi: *“Dunyoning eng boy tili, eng baxtsiz tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili yana shu turkchadir.*

Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishtir. Bitmas, yashamishtir. Yashar. Negaki, boydir” [4. B. 14].

Muallif fikrida davom etib, bu holat XX asrning 80-yillarida yana takrorlanganligini, tilning sofligi masalasi o‘tkir muammoga aylanganligi, ayniqsa, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bu masala ustida yanada jiddiyroq bosh qotirish dolzarb, davlat darajasidagi bosh masalalardan biriga aylanganligini uqtiradi hamda o‘zbek tilining sofligini, musaffoligini saqlab qolish, uni butun ko‘lami, ko‘rkamligi bilan kelgusi avlodlarga yetkazish shu Vatan, ona xalqimiz oldidagi muqaddas burch ekanligini har bir vatandoshimiz aslo unutmasligini ta’kidlaydi [4. B. 14].

O‘zbek tili takomili va taraqqiyoti bilan bog‘liq harakatlar bugungina maydonga chiqmadi, aksincha, bu urinishlar uzoq tarixga ega. Ya’ni Koshg‘ariydan boshlab Navoiygacha, undan so‘ng XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda maydonga kelgan jadidchilik harakatida, qolaversa, sobiq sho‘rolar davrida yuzaga kelgan til siyosati masalalari yuzasidan ilgari surilgan millat uchun, ona tili uchun kurash g‘oyasi tinimsiz davom etib kelganligi barchaga ma’lum.

XX asrning birinchi choragida ma’rifatparvar ziyolilar kishilarda milliy ruhni uyg‘otish, milliy ongni o‘stirishda tilga g‘oyat katta ahamiyat berdilar. Chunki ular millatning mavjudligini tasdiqlaydigan bebaho javohir ona tili ekanligini chuqur anglaganlar. Shu sababli ona tili rivoji uchun barcha choralarni ishga solib, o‘zbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqishga harakat qildilar [5. B. 92]. Ayniqsa, o‘tgan asr boshida maydonga kelgan jadidchilik harakati vakillarining bu sohadagi urinishlari millat ozodligi, til taraqqiyotidagi muhim burilishlardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu davrda Fitrat boshchiligida “Chig‘atoy gurungi” nomli ilmiy jamiyatning tuzilishi va bu jamiyat doirasida amalga oshirilgan til va adabiyot islohi masalalari samarasi o‘laroq, Fitratning Qayum Ramazon va Shokir Rahimiylar bilan hamkorlikdagi “Ona tili” (1918) darsligi, “Tilimiz I, II” (1919), “Tilimizning adabiyligi…” maqolalari, “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf (1-kitob) va Nahv” (2-kitob), Munavvar Qori, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnunning “O‘zbekcha til saboqlig‘i” (1925); Shorasul Zunnunning “O‘zbekcha til qoidalari” (1925) kabi asarlari maydonga keldi.

Tilshunos olim Azamatjon Rahimov bu davrda olib borilgan ishlar ko‘lamini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Chig‘atoy gurungi” o‘sha davrda jadidlar belgilagan amaliy tadbirlarni, adabiyot, san’at, tarix, yozuv, til va imlo bilan bog‘liq masalalarni muvofiqlashtirib turgan o‘ziga xos *ilmiy akademiya* hisoblangan. O‘zbek adabiy tili me’yorlarini ishlab chiqish, o‘zbek tili uslubiyati va nutq madaniyati mezonlarini belgilash, yozuvni isloh qilish, imlo qoidalarini yaratish, o‘zbek grafikasining tayanch prinsiplarini aniqlash, ilk marta muvofiqlashtirilgan o‘zbek alifbosini yaratish, o‘zbek tilini arabcha, forscha, tatarcha va usmonlicha so‘zlardan tozalash kabi amaliy tadbirlar ushbu guruhning asosiy vazifalari hisoblangan [6. B. 86]. Olim bu boradagi fikrlarida davom ettirib, o‘zbek ma’rifatparvarlari va jadidlarning lingvistik faoliyatini quyidagicha yo‘nalishlarga ajratadi:

1. O‘zbek tilining imlo qoidalari va imlo me’yorlari belgilandi. Bu jarayonda dastlab “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining amaliy faoliyati, keyinroq til qurultoylarida ilgari surilgan g‘oyalar, fikrlar, nazariy qarashlar hamda matbuotdagi chiqishlar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

2. Ko‘pgina mutaxassislarning fikricha, XX asrga qadar o‘zbek tilida tinish belgilari qat’iy belgilangan emas. Garchi punktuatsiya qoidalari ilmiy asoslanmagan bo‘lsa ham, lekin o‘zbek tilida amalda tinish belgilaridan foydalanilgan. Punktuatsiya qoidalarining dastlabki asoslari ham jadid ma’rifatparvarlari faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

3. O‘zbek pedagogikasining yangicha modeli (“usuli jadid”, “usuli savtiya” maktablaridagi o‘qitish tizimi), ayniqsa, lingvodidaktika (ona tili o‘qitishning samarali usullari)ning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. A.Fitrat Sh.Rahimiy va Q.Ramazon bilan hammualliflikda o‘zbek maorifi tarixida birinchi bor “Ona tili”(1918) darsligini yozdi. Keyinroq olim bu sohadagi ishlarini bir tizimga soldi va o‘zbek tilining ilmiy morfologiyasi va sintaksisiga doir “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf. Birinchi kitob. Nahv. Ikkinchi kitob” nomli monografik tadqiqotlar yaratdi. Fitratning mazkur kitoblari o‘zbek tilshunosligi tarixida o‘zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi izchil ravishda tavsiflangan birinchi grammatikadir.

4. Ilk professional o‘zbek publitsistikasi va jurnalistikasi yuzaga keldi, turli nomlarda gazeta va jurnallar nashr etilishi yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, jadid ma’rifatparvarlarining til, imlo, yozuv va adabiyot bilan bog‘liq fikrlari, tilshunoslikka oid nazariy qarashlari asosan o‘sha davrda nashr etilgan gazeta va jurnal sahifalarida yoritilib borildi.

5. Lug‘atchilik (leksikografiya) sohasi ham rivojlandi. Ashurali Zohiriy nashr ettirgan ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at” (1927), Abdulla Qodiriy hammuallifligida yaratilgan, Qozonda nashr etilgan “Ruscha-o‘zbekcha to‘la so‘zlik” (1934) bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu sohada Is‘hoqxon Ibratning faoliyati alohida diqqatga sazovor. 1901-yili 1000 dan ortiq arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha) va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sitta alsina” nomli olti tilli lug‘at yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

6. Grafika va epigrafika sohasida ham ulkan tadqiqotlar yaratildi. Shunisi qiziqki, Is‘hoqxon Ibrat Yevropa va Amerika tilshunoslaridan 50 yil ilgari dunyo yozuvlari haqida batafsil ma’lumot beruvchi “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) nomli mukammal ilmiy risola yozdi. Olim mazkur asarda 41 xil yozuv tizimi haqida, ularning taraqqiyot tarixi haqida batafsil ma’lumot bergan. Ibratning “Jome’ ul-xutut” asari o‘zbek yozuvlari tarixini o‘rganishda va dunyo yozuvlari evolyutsiyasini nazariy tavsiflashda ulkan metodologik ahamiyat kasb etadi.

7. Lingvistik aksiologiya borasida Navoiydan so‘ng tilimizning jozibasi, ifoda imkoniyatlarining kengligi xususida Fitrat ilmiy asosli qarashlarni ilgari surganligini alohida ta’kidlash joiz. Fitrat “Tilimiz” maqolasida o‘zbek tilining uzoq yillar arab va fors tillari ta’sirida bo‘lib kelgani, lekin leksik-grammatik jihatdan bu tillardan hech qanday qolishmasligini ta’kidlaydi [6. B. 87].

Jadidlarning ona tili takomili va taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari o‘zbek adabiy tili tarixida muhim o‘rin tutadi. D.Nematova jadidlarning ona tili rivojidagi xizmatlarini quyidagicha izohlaydi:

1. Jadidlar birinchilardan bo‘lib eski ta’lim usulining kamchiliklarini chuqur va teran anglashdi hamda uni isloh etishga urinishdi. Boshlang‘ich maktablarning milliy, zamonaviy, dunyoviy bo‘lishi xususidagi g‘oyalarni ilgari surishdi.

2. Yangi usuldagi boshlang‘ich maktablarni shakllantirib, uning ta’limiy va tarbiyaviy asoslarini yaratdi.

3. Yangi o‘quv tizimi va tamoyillaridan kelib chiqib, yangi shakl va mazmundagi ko‘plab alifbe, o‘quv darsliklarini nashr ettirishdi.

4. Ta’lim har bir xalqning o‘z ona tilida amalga oshirilishi lozimligi xususidagi fikr-g‘oyani targ‘ib-u tashviq qilishdi va mazkur g‘oyaning to‘la joriylanishi yo‘lida tinmay kurashishdi. Ayniqsa, til masalasi ular faoliyatida muhim o‘rin tutdi. Chunki bu davrga kelib o‘zbek adabiy tilining nazariy masalalarini ishlab chiqish, uning qonun-qoidalarini ma’lum bir tartibga keltirish, o‘zbek tili grammatikasini yaratish, tilning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini ko‘tarish juda dolzarb masala bo‘lgan [5. B. 16].

Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, til taraqqiyoti va uning umumiy qonuniyatlarini isloh qilish borasida jadidchilik harakati til masalalari bilan bog‘liq jihatlarni yoritishda muhim bir bosqich sanaladi. Tarixiy manbalar tilimizning taraqqiyoti va takomili haqidagi qarashlar va kurashlar chuqur ildiz otganligidan darak beradi. Bu asriy til va millat taqdiri, erkinligi orzusi Istiqlol tufayli qaror topdi.

Hozirda o‘zbek tilshunosligini tadqiq etishda o‘ziga xos muhim metodologik tamoyillar ilgari surilmoqda. Ya’ni tilga antropotsentrik yondashuv natijasida o‘zbek tilshunosligini ilmiy asosda o‘rganishda pragmalingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvosinergetika, gender lingvistikasi kabi bir qator yo‘nalishlar maydonga keldi. A.Rahimov mazkur holat tilshunoslikda tadqiqotlar olib borishning turfa xil yo‘llari va usullarini keltirib chiqarishini ta’kidlagani holda quyidagi fikrlarni bildiradi: “Hozirda o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda dialektikaga yonma-yon tarzda sinergetika, germenevtika, pragmatika, fenomenologiya kabi yangicha yondashuvlar va aspektlar ham faol qo‘llanilmoqda. Ya’ni sovet tilshunosligida yakkahukmron metodologiya sanalgan dialektika (dialektik materializm) hozirda yangicha metodologiyaga yon bermoqda. Bu esa zamonaviy o‘zbek tilshunosligining metodologik plyuralizm asosida taraqqiy etayotganini ko‘rsatuvchi yorqin dalildir. Lekin shu o‘rinda alohida ta’kidlash zarurki, metodologik plyuralizm ham, bir jihatdan ijobiy va yana bir jihatdan esa salbiy holat sanaladi. Bunda serqirra tabiatga ega tilning har bir jihatini o‘rganishda qo‘llaniladigan metod, usul va yondashuvlarning turlichaligi nazarda tutiladi. Ba’zan metodologiyaning turli-tumanligi xulosalarning ham turfa xil bo‘lishiga va noaniq yechimlarga olib borishi mumkin. Bu tilning ma’lum aspekti doirasida metodologik oriyentatsiyaning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq” [7. B. 206].

Darhaqiqat, til tadqiqida metodologiya muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixdan ma’lumki, o‘zbek tili til taraqqiyotining turli bosqichlarida turli metodlar asosida tadqiq etib kelindi. Jumladan, qiyosiy-tarixiy metod, sistem-struktur metod va hozirda antropotsentrik metodlar asosida tilning turli sathlari tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu metodlar, albatta, bir-birini inkor etmaydi, aksincha, to‘ldiradi. Tan olib aytish kerakki, bugungi kunda o‘zbek tili turli metodlar asosida ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqur o‘rganilmoqda. Shuningdek, qiyosiy aspektda olib borilayotgan ishlar ham mavjud. Uning samarasi o‘laroq, turli lug‘atlar, monografiyalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratildi, ko‘plab dissertatsiyalar, tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunga kelib, “milliy til” uchun kurashgan va umrini fido etgan millatimizning asl farzandlari orzu-istaklari amalga oshdi. O‘zbek tilining nufuzini va maqomini oshirish yuzasidan davlat miqyosida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat tilining maqomini, amalda qo‘llanilishi bilan bog‘liq funksional jihatlarini tizimlashtirish hamda nufuzini yanada oshirish davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan bir nechta qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilindi. Qolaversa, davlat tilini amalda qo‘llash bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilganligi ham davlat tiliga bo‘lgan e’tiborning yuksak namunasi deyish mumkin. Bugungi kunda davlat tilining barcha sohalarda keng qo‘llanishi va to‘la ravishda davlat tilida ish yuritilishini ta’minlash maqsadida barcha viloyatlarda mazkur departamentning vakillari faoliyat olib bormoqda.

Professor N.Mahmudov bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan quyidagi fikrlarni yozadi: “O‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biri hisoblanib, o‘zbek xalqining bebaho mulkidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2– ilova va “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi”ning 8-bandida o‘zbek tili ilmiy maktabla-

rining zamonaviy metodlarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish, natijalarni ommalashtirish vazifasi alohida ta’kidlangan. Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda o‘zbek tilini davlat tili sifatida mavqeyini oshirish va uning jamiyatimizdagi rivojini ta’minlash borasida o‘zbek tilini ilmiy tadqiq etish va uni shu jamiyatning har bir a’zosiga bebaho qadriyat ekanligini uqtirish borasida sa’y-harakatlar olib borilmoqda” [8. B. 3]. Darhaqiqat, ma’naviy qadriyatimiz sanalgan milliy tilimizning sofligini saqlashga barchamiz birdek mas’ulmiz. Professor Y.Odilov “Til bilan bog‘liq ishlar mamlakat til siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. Biron-bir tilga huquqiy maqom berish, ta’lim va qonunchilik til (lar)ini belgilash, boshqa milliy tillarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish til siyosatining asosiy jihatlaridir. Albattaki, bunday siyosat xalqaro huquq normalariga ham mos bo‘lishi zarur. Bu jihatdan O‘zbekistonda o‘zbek tilining davlat tili sifatida belgilanishi, fuqarolarning ta’lim tilini erkin tanlashi, yuqori tashkilotlarga davlat tilida yoki o‘zlariga qulay tilda murojaat qila olishi va boshqalar bizdagi til siyosatining xalqaro huquqiy me’yorlarga muvofiqligini, xolisligini ko‘rsatadi. Bunday til siyosati jamiyat a’zolari barcha qatlamining nutqiy, aqliy, ruhiy va etnomadaniy ehtiyojlarini qondiradi” deya ta’kidlaydi [9. B. 94].

Professor A.Sobirov ham o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi katta yutuq ekanligini, lekin shuncha vaqt o‘tsa-da, tilning sofligi, tozaligi uchun kurashish hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini ta’kidlagani holda bu ishga xalal berayotgan to‘siqlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi [10. B. 68-69]:

1. Og‘zaki nutqda orfoepik me’yorlarga to‘liq rioya qilmaslik, so‘zlarni buzib talaffuz qilish. Masalan: *moshina,, ustol, do‘xtir, o‘rden, kastim, malim, bohor, g‘ish, pikr* kabi. Boshqalarning g‘ashiga tegmaslik, ularni zeriktirmaslik uchun birinchi galda so‘zlarni to‘liq va buzmasdan talaffuz qilish lozim.

2. Muomala-munosabat jarayonida sheva elementlaridan o‘rinsiz foydalanish. Ayniqsa, bu holat radio-televideniye eshittirishlarida, ayrim tadbirlarda keng avj olmoqda. Tan olish kerak, shevalar, dialektlar o‘zbek tili suv ichgan mangu buloqlar sanaladi, ammo sheva elementlaridan o‘rinsiz foydalanish adabiy me’yorlarga putur yetkazadi. Masalan: *man, san, eytvoppan, aqabaqa* kabi.

3. O‘g‘zaki nutqda o‘zbek tiliga hali o‘zlashmagan parazit so‘zlarni ishlatish. Masalan: *karoche govorya, tak shto, voobshe, tolko, bravo, mushayt qilma* kabi. Keyingi paytlarda bu hodisaning qamrovi kengayib*, ayva, chao, okey, xello* singari so‘zlarni ham o‘z ichiga olmoqda. Mustaqillik yillarida yurtimizning husniga xol bo‘lib tushayotgan bir-biridan chiroyli, muhtasham binolarni ko‘rib, har birimizning ko‘ksimiz tog‘dek ko‘tarilmoqda, lekin… “Farangiz”, “ Elita”, Elegant”, “Plaza”, “Bravo”, “Golden chiken”, “Petrol” singari atamalarning yoxud butun respublikamiz bo‘ylab bemaza qovunning urug‘idek keng ko‘lamda tarqab yotgan “gastol”, “razval”, “moyka” kabi tilimizga o‘zlashmagan so‘zlarning nafaqat o‘zbek tiliga, balki xalqimizning tarixiga, urf-odatlariga, madaniyati va san’atiga qanday aloqasi bor?! Nima, ularga har kuni London va Parijdan yoki Rossiya va olis Amerikadan mehmonlar kelib tunab ketadimi?

O‘z fermer xo‘jaligiga “Indaba”, “Nek star”, deb nom qo‘yib olgan azamatlarga nima deysiz?! “Rayyona Ishonch-servis X.K.”, “Alyor teks”, “Rash milk”, “Dinur-lend”, “Chinkamol”,”Akslepiy” singari bodroqday sochilib yotgan, oddiy o‘zbek uchun hech qanday ma’no bermaydigan nomlar kimga kerak? Internet, kompyuter, MTS lizing, marketing, kollej, litsey, tadbirkor, ishbilarmon kabi atamalar allaqachon o‘zbek tilining lug‘at boyligidan o‘rin oldi, ammo KKBFMNM viloyat boshqarmasi, “Asaka MAK MChJ”, “ Samoshertekst” singari nomlar ostida yotgan ma’noni ochib berishga mana men degan tilshunos olim ham ojizlik qilsa kerak. Biz qayerda yashayapmiz o‘zi va kimga taqlid qilyapmiz?! Bu tilimizning qashshoqligi emas, kambag‘alligi nishonasi emas, balki mutasaddi shaxslarning e’tiborsizligi, til savodsizligi tufaylidir.

4. Yozma nutqda imlo qoidalariga bo‘ysunmaslik, so‘zlarni xato yozish. Masalan: marxabo (marhabo), xalq (halq), Gazal-kent (G‘azalkent) kabi. Aslida, yozma savodxonlik har bir millatning ko‘zgusi hisoblanadi. Shu ma’noda so‘zlarni pala-partish, xato yozishni kechirib bo‘lmaydi.

5. O‘zbek tiliga allaqachon o‘zlashib bo‘lgan ruscha-baynalmilal so‘zlarni o‘rinsiz tarjima qi-

lish. Misol uchun *ovoznigor (radio), jarida, mujalla (jurnal)* kabi.

Professor X.Usmonova esa davlat tilini amalda qo‘llash bilan bog‘liq chora-tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, jamiyatdagi turli soha va tarmoqlarda hali-hanuz qator kamchiliklar mavjudligi va bu kamchiliklar har bir tilshunosni o‘ylantirishini ta’kidlab, quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:

1. Ayrim davlat va nodavlat idoralarida (ko‘proq bank-moliya sohasida) hali ham ish yuritish, rasmiy hujjatlar tili sifatida rus tilidan foydalanilayotgani.

2. Ish yuritish o‘zbek tilida olib borilayotgan davlat va nodavlat idoralari rasmiy hujjatlarida adabiy til imlo, uslubiy, grammatik me’yorlarining buzilishi holatlarining keng uchrashi.

3. Jamiyatda barcha sohalarda lotin yozuvining to‘liq amalga kirmaganligi. Ikki yozuvlilik hukm surayotgani.

4. O‘zbek tilini o‘qitishga doir zamonaviy darslik va qo‘llanmalarning yetarli emasligi.

5. Bosma nashrlarda imlo va uslubiy xatolarning kuzatilayotgani.

6. Internet manbalarida imloviy va uslubiy xatolarning juda ko‘p uchrashi.

7. Keng aholi qatlamining, shu jumladan, ziyoli qatlamning ham imloviy savodxonlik darajasi pasayganligi.

8. Tashqi yozuvlar, reklamalar matnida imloviy va uslubiy xatolarning ko‘p uchrashi.

9. Tashqi yozuvlar, reklama matnlarining xorijiy tillarda yozilishi.

10. Noo‘rin o‘zlashmalarning til va nutqda barqarorlashayotgani.

11. Davlat va nodavlat muassasa, tashkilot, korxonalarning xorijiy tillarda nomlanishi.

12. Milliy mahsulotlarning xorijiy tillarda nomlanishi.

13. Davlat tilida olib boriladigan teleko‘rsatuvlarning xorijiy tillarda nomlanishi kabi qator holatlar tilimizga yanada e’tiborli bo‘lishimiz va yuqoridagi holatlarni bartaraf etish chora-tadbirlariga tizimli yondashuvni talab etadi [11. B. 62].

Shuningdek, X.Usmonova bugungi kunda noo‘rin o‘zlashmalarning til va nutqda barqarorlashayotgani tilimiz sofligiga putur yetkazayotgan omillardan biri ekanligi va mazkur o‘zlashmalarning aksaryati internet orqali kirib kelayotgani sir emasligi, ularning lug‘aviy ma’nosi, mazmuni ommaga to‘liq tushunarli deb bo‘lmasligi, vaholanki, bu so‘zlar ommaviy axborot vositalarida va kundalik hayotda faol qo‘llanilayotganligini kuyinchaklik bilan ta’kidlab o‘tadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosaga kelish mumkinki, yurtimizda amalga oshirilayotgan adolatli til siyosati xalqimizning birdamligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Til tadqiqi bilan bog‘liq yangidan yangi ilmiy paradigmalar maydonga keldi. Fanlarning o‘zaro aloqasi, turli ilmiy sohalarning integratsiyasi natijasida o‘zbek tili turli fanlar bilan aloqadorlikda ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganilmoqda, qardosh hamda boshqa tizimdagi tillar bilan qiyoslash orqali tilimizning boy ichki imkoniyatlarini tadqiq etish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay, oldimizda turgan muammolar talaygina. Ularni bartaraf etish galdagi muhim vazifa sanaladi.

Adabiyotlar:

1. *Авлоний А*. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

2. *Мирзиёев Ш*. Ўзбекистон халқига байрам табриги // Халқ сўзи, 2020 йил 21 октябрь.

3. *Маҳмудов Н*. Ўзбек тилининг мўътабар мақоми. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2022. – № 5. – Б. 3–8.

4. *Собиров А*. Тил тараққиётининг баъзи муаммоларига доир.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. – № 5. – Б. 13–17

5. *Ne’matova D.* O‘zbek ilmiy tilshunosligi. – Toshkent: Muharrir, 2020. – 160 b.

6. *Раҳимов А*. Жадидларнинг ўзбек тилшунослиги ривожидаги ўрни. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – № 6. – Б. 87–90.

7. *Раҳимов А*. Истиқлол даври ўзбек тилшунослигининг айрим методологик муаммолари. // “Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолар”. (Профессор А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий конференци материаллари). – Андижон, 2012. – Б. 205–211.

8. *Маҳмудов Н*. Антропоцентризмнинг тилшуносликда алоҳида парадигма сифатида шакл-

ланиши. / Китобда: Антропоцентрик тилшунослик: тушунча ва терминлар. – Тошкент: Тубо нашр, 2022. – Б. 6–30.

9. *Одилов Ё*. Тил сиёсати: Давлат тили, расмий тил ва миллий тиллар. / Китобда: Антропоцентрик тилшунослик: тушунча ва терминлар. – Тошкент: “Тубо нашр”, 2022. – Б. 90–141.

10. *Собиров А. Жўрабоева З.* Она тилининг софлиги – миллат равнақининг мезони.//Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. (Профессор А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий конференция материаллари). – Андижон, 2012. – Б. 65–70.

11. *Усмонова Н*. Давлат тилининг нуфузу ва мавқеини юксалтиришдаги муаммолар ва ечимлар. // Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari. (A.Nurmonov xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Andijon, 2022. – Б. 62–64.

LANGUAGE IS AN IMPORTANT FACTOR DETERMINING THE DESTINY OF A NATION

Barchinoy, A. Israilova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 1(69). 92-98.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *uzbek language, nation, state language, literary language, spelling, language research, spiritual heritage, language development, influence of social factors on language.*

The national language is one of the most important symbols of every nation. The granting of the status of “State language” to the Uzbek language opened an important new stage and a new era in the fate of the Uzbek people and their language. If we look at the history, it shows that the views and struggles about the development and improvement of our language are deeply rooted. The fate of this century’s “language and nation”, the dream of freedom, was decided thanks to Istiklal. The article discusses the national language and its place in the nation, its development and improvement.

Until today, the centuries-old dreams of the original children of the nation, who fought and sacrificed their lives for the “mother tongue”, have come true. Our tongue spread wide. Many measures are being taken at the state level to increase its prestige and status. In particular, many measures are being taken at the state level to improve the state language and its status. Systematization of the status of the state language, its functional aspects related to its practical use, and further increasing its prestige has been raised to the level of state importance. In this regard, several decisions and decrees were adopted by the head of our state. In particular, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 21, 2019 No. PF-5850 “On measures to fundamentally increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language” and the Presidential Decree dated October 20, 2020 – A series of Decrees No. 6084 “On further development of the Uzbek language in our country and measures to improve the language policy” was adopted. In addition, the establishment of the State Language Development Department under the Cabinet of Ministers in order to eliminate problems related to the practical use of the State language can be said to be a high example of attention to the State language. Today, the representatives of the Department in all regions are working to ensure the wide use of the state language in all areas and full operation in the state language.

In fact, we are all equally responsible for loving, honoring and preserving the purity of our "mother tongue", which is considered our spiritual value. We should always remember that this is a sacred duty.

From the points mentioned above, it can be concluded that the fair language policy implemented in our country serves to ensure the unity of our multi-ethnic nation. New scientific paradigms related to language research have appeared. As a result of the interaction of sciences and the integration of various scientific fields, the Uzbek language is being studied both theoretically and practically in connection with various sciences, in-depth scientific research is being conducted to explore the rich internal potential of our language by comparing it with related languages and other systems. Despite this, the problems before us are numerous. Eliminating them is considered an important task.

References:

1. Avloniy, A. (1992) *Turkiy guliston yoxud axloq* [Turkish culture or morals]. Tashkent: O‘qituvchi.

2. Mirziyoyev, Sh. (2020) O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi [Holiday greetings to the people of Uzbekistan]. *Xalq so‘zi*. October 21.

3. Mahmudov, N. (2022) O‘zbek tilining mo‘tabar maqomi. [The prestigious status of the Uzbek language]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. No 5. Pp. 3-8.

4. Sobirov, A. (2014) Til taraqqiyotining ba’zi muammolariga doir [On some problems of language development]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. No 5. Pp. 13-17.

5. Ne’matova, D. (2020) *O‘zbek ilmiy tilshunosligi* [Uzbek scientific linguistics]. Tashkent: Muharrir.

6. Rahimov, A. (2013) Jadidlarning o‘zbek tilshunosligi rivojidagi o‘rni. [The place of the Jadids in the development of Uzbek linguistics]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. No 6. Pp. 87-90.

7. Rahimov, A. (2012) Istiqlol davri o‘zbek tilshunosligining ayrim metodologik muammolari [Some methodological problems of Uzbek linguistics during the period of independence]. In: “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolar” [‘Actual problems of Uzbek linguistics’]. Materials of the scientific-practical conference dedicated to the 70th anniversary of the birth of Professor A.Nurmonov. Andijon, 2012. Pp. 205-211.

8. Mahmudov, N. (2022) *Antropotsentrizmning tilshunoslikda alohida paradigma sifatida shakllanishi* [Formation of anthropocentrism as a separate paradigm in linguistics]. In: Antropotsentrik tilshunoslik: tushuncha va terminlar. [Anthropocentric Linguistics: Concept and Terms]. Tashkent: Tubo nashr. Pp. 6-30.

9. Odilov, Y. (2022) *Til siyosati: Davlat tili, rasmiy til va milliy tillar* [Language policy: State language, official language and national languages]. In: Antropotsentrik tilshunoslik: tushuncha va terminlar [Anthropocentric Linguistics: Concept and Terms]. Tashkent: Tubo nashr. Pp. 90-141.

10. Sobirov, A., Jo‘raboyeva, Z. (2012) Ona tilining sofligi – millat ravnaqining mezoni [The purity of the mother tongue is a measure of the development of the nation]. In: “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” [‘Actual problems of Uzbek linguistics’]. Materials of the scientific-practical conference dedicated to the 70th anniversary of the birth of Professor A.Nurmonov. Andijan. Pp. 65–70.

11. Usmonova, H. (2022) Davlat tilining nufuzu va mavqeyini yuksaltirishdagi muammolar va yechimlar [Problems and solutions in raising the prestige and status of the state language]. In: ‘Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari’ [‘Actual problems of speech culture and Uzbek linguistics’]. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference dedicated to the memory of A. Nurmonov. Andijan. Pp. 62-64.

Muallif haqida ma’lumot:

ISROILOVA Barchinoy Abdug‘appor qizi – Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: ollidamas@mail.ru